

DUNYODA SUV TANQISLIGI VA UNING OLDINI OLISH CHORATADBIRLARI

O'zDJTU talabasi

Hakimova Dilnoza Akbarjon qizi

Ilmiy rahbar: Nizomov Feruz Raxmon o'g'li

Annotasiya: Ushbu maqolada dunyoda suv tanqisligi, undagi dolzarb muaomolar, masalalar va ularning yechimi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, suvni behuda isrof bo'lishi, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Suvdan to'g'ri, samarali foydalanish va uni behuda sarf bo'lishini oldini olish bo'yicha xulosa va tavsiyalar berilgan.

Suv-hayot manbai. Zero, suvsiz hayot yo'q. Suv tiriklik evolyutsiyasi ham, iqlim atrof-muhitga ham million yillardan buyon ta'sir ko'rsatib kelayotgan Obi hayotdir. Shuning uchun, biz insonlar suvni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz shart.

Shuni takidlash lozimki, hozirgi davrda subhan bo'lgan talab va ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga O'zbekistonda 2030- yilga borib suvga bo'lgan talab 7mlrd.kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Jahon davlatlarida keyingi yillarda tez-tez takrorlanadigan qurg'oqchilik ko'plab muaommolarga duch kelmoqda. Jamiyat esa suv muaommolarni hal qilish va suv taqchiligini kamaytirish uchun qat'iy choralarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqda. Suvning tabiat va inson hayotidagi o'rniga kelsak yashash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, munosib hayot kechirish va insoniyat rivoji uchun zarur asosiy rears hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda suvni ishlatish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. "Suv bo'yicha global hamkorlik (SGH) tashkiloti

ko'plab xalqaro manbalarning yaqinlaahib kelayotgan suv inqirozi haqidagi taxminlarni bir necha omillar asosida umumlashtirgan:

-insoniyat dunyodagi umummiy suv zahiralarning 0,4%dangina foydalanish imkoniyatiga ega.

-bugungi kunda 40dan ortiq mamlakatlardagi 2mlrd dan ortiq odam suv tanqisligi bilan kurashmoqda.

-har kuni 2 mln tonna chiqindi suv havzalariga tashlanadi.

Bundan ko'rinib kuribdiki suvdan foydalanish qonuniyati izdan chiqqan.

Suv tabiatan keng tarqalgan, yer yuzining qariyb 3/4qismini tashkil qiladi. Suv yer yuzida keng tarqalganligi va uning insonlar hayotidagi ahamiyati kattaligi tufayli qadimdan hayot manbai hisoblanadi. Qadimgi dunyo faylasuflari fikricha, suv hayot uchun zarur bo'lgan 4 unurning biridir(olov, havo, tuproq, suv)

O'zbekiston Dunyo resurslari insitituti(World Resource Institute) tomonidan e'lon qilingan suv tanqisligidan aziyat chekuvchi mamlakatlar reytingida 164ta mamlakat orasidan 25-o'rinni egallaydi. Tadqiqotlarga ko'ra O'zbekiston yuqori suv tanqisligi mavjud 27 ta davlatdan iborat guruhga kiritilgan. Ularning orasida Afg'oniston (27-o'rin), Turkiya (32-o'rin), Qirg'iziston (38-o'rin), Portugaliya(41-o'rin) Va Italiya (44-o'rin) bor. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari Tajikistan Va Qozog'iston 51-Va 60-o'rinni egallab, o'rtacha yuqori suv tanqisligi mavjud Guruhiga kiritilgan. Turkmaniston 15-o'rinda qayd etildi Va mintaqaning eng kam suvli mamlakati deb topildi. Reytingning birinchi beshtaligiga suv tanqisligi masalasi Juda tanqis bo'lgan davlatlar kiritildi. Qatar(1-o'rin), Isroil(2-o'rin), Livan (3-o'rin), Eron (4-o'rin) Va Iordaniya (5-o'rin) shular jumlasidan.

Markaziy Osiyo okean Va dengizlardan olisda joylashgan, qurg'oqchil hudud bo'lganligi sabab,bu Yerda suv manbalari strategik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yer osti suvlari ham. Yer osti suvlari insoniyat uchun mavjud bo'lgan chuchuk suvning eng ko'p mavjud manbasi, shuningdek qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun hal qiluvchi resurs hisoblanadi. Yer osti suvlari yer yuzidagi suvning 1% dan

kamrog'ini tashkil qiladi va bugungi kunda haddan tashqari ko'p o'zlashtirilmoqda. Butun dunyo bo'ylab sug'oriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning 1/4 qismi yer osti suvlarining barqaror bo'lmagan qazib olinishiga tayanadi. Bunday holatlarda esa AQSH, Meksika, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Hindiston, Pokiston va Shimoliy Xitoy kabi davlatlarda yer osti suvlari bilan bog'liq muammolarning yizaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Malumot o'rnida, yer osti suvlaridan Qo'shma Shtatlar aholisining 50%ga yaqini ichimlik suvi uchun foydalanadi lekin ekinlarni sug'orish va qishloq ho'jaligi ishlab chiqadish uchun foydalaniladigan ulush bundan yuqoriroqdir.

Bu borada O'zbekistonda ahvol qanday?

Respublikamizda yer osti suvlaridan foydalanish va quduq qazish tizmini takomillashtirish, yer osti suvlarini muhofaza qilish, aholi orasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ'ib qilish, yer osti suvlarini kamayishi va ifloslanishini oldini olish maqsadida yer osti suvlariga quduq burg'ilash va ulardan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7- dekabrda 439-sonli qarori qabul qilingan, qarorda yer osti suvlari sathi va zaxirlari kamayib ketayotgan 23 ta tumanda quduqlar burg'ilashga motatoriy joriy erilgan, bular:

- Navoiy viloyatining Nurota;
- Samarqand viloyatining Nurobod, Payariq, Ishtixon, Urgut, Qo'shrabod
- Jizzax viloyatining Forish, Zomin, Yangiobod
- Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Ko'kdala, Koson
- Namangan viloyatining Kosonsoy, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on
- Farg'ona viloyatining Beshariq, Izboskan
- Andijon viloyatining Jalolquduq, Xo'jaobod, Paxtaobod, Qorg'ontepa tumanlari

Shularni inobatga olib so'ngi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Jumladan, 2017-2023 yillarda jami 1,2 mln gektar maydonda yani qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 31% da suv tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Yana bir muhim e'tirof- O'zbekiston suv tejoychi

teznologiyalarni joriy qilish bo'yicha Markziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Oiyoda to'rtinchi va dunyoda 13- o'rinda ekani quvonarli. Buni tizim faoliyatini yanada isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali ijrosi natijasi deyish mumkin.

Xulosa: yer yuzi aholisini to'ydirish suvga ortib borayotgan ehtiyoj hisob- kitoblari suv- yer resurslari va ekotizimlarini integratsiyalashgan boshqaruvning kelajakdagi muoamolari ko'lamini o'zgarayotgan dunyoda yashashga puxta tayyorlaniah zarurligidan dalolat bermoqda. Bugungi kunda sayyoramizning 8mlrd axolisi suvdan qanday foydalanish borasida yakdil qarorga kelishi zarur. Global bo'lgan suv muoammosi masalalariga oqilona yechim topish uchun avvola birdamlik zarur. Hozirgi kunda mana shu muoammolar bo'yicha O'zbekistonda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida resurs tejamkor qurilmalar, suvni tejash, undan samarali foydalanisbga imkon beruvchi gidrotexnik inshootlardagi turli aqilli suv o'lchash asboblari, suv hisobni to'g'ri yuritishda suv balansi hisob bo'yicha tavsiyalar taklif qilingan. Ushbu tavfsiyalardan foydalanish suvni tejash, undan to'g'ri foydalaniahga va suv tanqisligi oldi olinishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Demokratlashtirish va inson huquqlari jurnali
- 2.Uzsuvtaminot jurnali
- 3.Americaovozi.com
- 4.Insitude World Resource reyting jurnali